

QORAXONIYLAR DAVLATI

Akilov Baxtjoja Daniyori o'g'li

CHDPU Tarix yo'nalishi 2 bosqich talabasi

Anontatsiya: *Ushbu maqola Qoraxoniylar davlati haqida malumot beradi yani IX asrda turklarning O'rta Osiyo mintaqasiga ko'chishi natijasida vujudga kelgan. Davlat Oltoy tog'larining shimoli-g'arbiy mintaqasidan bo'lgan qoraxoniylar nomi bilan mashhur turk urug'i asos solgan. Asli butparastlik diniga e'tiqod qiluvchi qoraxoniylar X asrda islomni qabul qilganlar, bu ularning davlatini mustahkamlanishi va kengayishida muhim rol o'ynagan.*

Kalit so'zlar: *«Qutadg'u bilig», «Devonu lug'atit turk», «Fatovoyi qozixon», numizmatik materiallar, Munajjim boshi, <<hukumdor>><<rahbar>>, Bug'raxon at-Turkiy.*

KIRISH

Qoraxoniylar davlatining barpo etilishi (766-1212 yillarda) harbiy, siyosiy va iqtisodiy omillarning qorishmasi bilan tavsiflangan. Qoraxoniylar qo'shni davlatlarning tarqoqligi va kuchsizligidan foydalanib, o'z hududlarini kengaytira oldilar. Ular qoraxoniylar kelishidan oldin hududni nazorat qilib turgan Somoniylar ustidan g'alaba qozonib, o'zlarini mintaqaviy davlat sifatida mustahkamladilar. Qoraxoniylar davrida savdo-sotiq rivoj topdi va ular Sharq va G'arbni bog'lovchi muhim savdo yo'llarini o'rnatdilar. Qoraxoniylar islom madaniyatiga, jumladan, masjid, maqbara, minora kabi ko'plab me'moriy inshootlar qurilishiga ham muhim hissa qo'shgan.

ASOSIY QISIM

Vaholanki har bir davlatning vujudga kelishi, rivoji va tanazzuliga oid jarayonlar birinchi navbatda shu jamiyatdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bevosita bog'liq kechgan. Ma'lumki IX-XII asrlarda Movarounnahr tarixida turkiy xalqlar sulolalarining hukumronlik mavqei mustahkamlanganligi bilan ajralib turadi, Qoraxoniylar davlati to'g'risida taniqli olim K.Sh. Shoniyozov ham o'z asarlarida keng to'xtalib o'tgan. Shu bilan birga Qoraxoniylar davlati Qarluq davlatining davomi ekanligi, bu ikki nomdagi davlat aslida bir davlat bo'lganligi va mazkur hoqonlik qarluq qabilasi tomonidan 840-yilda tashkil topganligi to'g'risida o'z fikr mulohazalarini bildirib o'tgan. Umuman olganda, K.Sh. Shoniyozov mazkur davlat tarixini yoritishda butunlay yangi fikrlarni o'rtaga tashladi.

O. Prisak, K.Sh. Shoniyozov davlat tashkil topgan sana 840 yil deb belgilasa, boshqa bir guruh olimlar V.V. Bartold, O.K. Koraev va boshqalar esa bu davlatni 940 yilda tashkil topgan deb hisoblaydilar. [1] Tarixchi olimlar qoraxoniylar davlati tarixi hali to'liq o'rganilmaganligi ta'kidlashgan, shunga qaramasdan bu davlat Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'ati turk», Mahmud O'shiyning «Fatovoyi qozixon», Abu Said Gardiziyning «Zayn ul-axbor», Ibn al-Asirning «Al-komi! fit-tarix» asarlarida qoraxoniylar tarixi xususida tegishli ma'lumotlar mavjud. Mahmud

Koshg'ariyning «Devon-u lug'atit turk» asari turkiy qavmlar tarixi xususida qimmatli ma'lumotlar beradi. Qoraxoniylar tarixini o'rganishda XVII asr muallifi, Usmoniylar saroyi bosh munajjimi Ahmad afandining (Munajjimbohi) arab tilidagi solnomasi ham katta ahamiyat kasb etadi. XX asr tarixshunosligida O. Pritsak, V. Kochnev, E.A. Davidovich numizmatik materiallar asosida mazkur davr tarixiga oid tadqiqotlarni amalga oshirishgan. Qirg'iz olimi O. Karayev ilk bora Qoraxoniylar davri tarixiga bag'ishlangan monografiyani yozgan. O'zbek tarixshunosligida A. Ziyov tadqiqot ishi alohida ahamiyatga ega bo'lib, B.Mahmudovning nomzodlik dissertatsiyasida esa Qoraxoniylar davlat boshqaruvi tahlil etilgan.

X asrning ikkinchi yarmiga kelib ichki ziddiyatlarning kuchayishi va keskinlashuvi natijasida Somoniylar davlati kuchsizlana boshlaydi. Somoniylarga tobe bo'lgan viloyatlar ayniqsa, Xurosonda ular hokimiyatiga qarshi ko'tarilgan isyonlar, toju-taxt uchun uzluksiz olib borilgan kurashlar Somoniylar davlati inqirozini yaqinlashtirgan edi. Bunday vaziyatdan Yettisuv va Koshg'arda yashovchi turkiy qabilalar unumli foydalanishdi. Chunki, X asrning ikkinchi yarmiga kelib bu hududlardagi turkiy qabilalar qarluqlar, chig'illar, yag'molar va boshqalar o'zlarining kuchli davlatlarini tuzishga muvaffaq bo'lgan edilar. 840-yili qarluqlar sardori Isfijob hokimi Bilgaku Qodirxon o'zini xoqon deb atab, oliy hukmronlikka da'vo bilan chiqqan edi. Lekin o'sha yildayoq Somoniylar Isfijobni zabt etishdi. Turkiy qabilalar, ayniqsa 893-yili Ismoil Somoniy Tarozni egallaganidan so'ng g'arbiy Koshg'ar yerlari tomonga chekinishga majbur bo'lishgan edi. Sotuq Bugroxon Somoniylar tomonidan qo'llab quvvatlangan holda turkiy qabilalar orasida o'z ta'sir doirasini kengaytirib bordi. U Taroz va Koshg'arni qo'lga olib, 927-yili Bolasog'unni egalladi hamda o'zini oliy hukmdor deya e'lon qildi. Uning vafoti (955/956)dan so'ng hokimiyat o'g'li Musoga o'tdi. Muso davrida tarixiy manbalar, numizmatik materiallar ma'lumotiga ko'ra 960-yili 200 ming chodirlik turkiy aholi islom dinini qabul qilgan. Muso o'ziga Koshg'arni qarorgoh qilib olgan. Ular «Qoraxon» deyishdan asosiy maqsad «Qoraxon» so'zi turlicha ma'noda talqin qilinadi. Xususan, «qora» so'zi «kuchli», «xalq», «xon» so'zi «hukmdor»«rahbar» ma'nolarida kelishini ko'pchilik olimlar e'tirof etishadi. Qoraxoniylardan birinchi bo'lib islomni qabul qilgan va musulmoncha Abdulkarim degan nom olgan hukmdor Xorun Bug'raxon hisoblanadi. Ayrim yozma manbalarda u Bug'raxon at-Turkiy deb nomlanadi. Qoraxoniylar hukmronligi davri o'zaro hokimiyat uchun kurashlar doimiy asnoda bo'lib turganligi bilan izohlanadi.

Butun TyanShan va Yettisuvni egallab bo'lgandan so'ng, Qoraxoniylar Somoniylar davlati tarkibida bo'lgan Movarounnahrda ham harbiy yurishlar uyushtira boshlashadi. Ular tez orada Farg'ona va Isfijob (Sayram)ni bosib olishga erishishadi. 990-992-yillarda qoraxoniy Xorun (Hasan) Bug'raxon Somoniylarga tegishli bo'lgan O'rta Osiyodagi mulklarning kattagina qismini bosib oladi. 992-993-yillarda esa Xorun Bug'raxon Samarqand va Buxoroni ham egallaydi. [3] 1001-yilda Qoraxoniylar xoni Nasr, G'aznaviylar Sultonni Mahmud bilan shartnoma tuzib, Amudaryoni ikki o'rtadagi chegara qilib belgiladi. Somoniylar davlati o'rnida ikki ulkan davlat tashkil topdi, Birinchisi Koshg'ardan

Amudaryogacha cho'zilgan Sharkiy - Turkistonning bir qismini, Yettisuv, Shosh, Farg'ona va kadimgi xududlarini o'z ichiga olgan qoraxoniylar davlati. Ikkinchisi - Shimoliy Hindiston sarhadlaridan Kaspiy dengizining janubiy qirg'oqlarigacha cho'zilgan hamda hozirgi Afgoniston va shimoli sharkiy Eronni o'z ichiga olgan G'aznaviylar davlati edi.

Qoraxoniylar davlati 1040-yilga kelib 2 mustaqil davlatga: sharqiy va g'arbiy qismga bo'linib ketadi. Sharqiy qismiga Yettisuv, Qashqar, Taroz, Isfijob, Shosh va Sharqiy Farg'ona kirgan. Poytaxti Bolasog'un, madaniy markazi Qashqar bo'lgan. G'arbiy qism Movarounnahrdan to Farg'ona vodiysining g'arbiy chegarasigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga oladi. Markazi Samarqand hisoblangan. [4] Qoraxoniylarning Movarounnahrda hukmronligi 200-yilga yaqin davom etadi. Somoniylarga tegishli bo'lgan yerlarni egallash jarayonida Qoraxoniylar boshqaruvchilari vaqtinchalik bo'lsada birlashib turkiylarning yirik Qoraxonlar davlatini barpo etadilar. Bu davlat bir nechta viloyatlarga bo'lingan bo'lib, Movarounnahrda dastlab Nasr Ilekxon hokimlik qilgan. Shijoatli va mohir sarkarda Nasr Ilekxon do'stona munosabatlar o'rnatish tarafdori ekanligini bildirib qo'shnisi Mahmud G'aznaviy bilan elchilik munosabatlari o'rnatadi. Ammo, bunday munosabatlar uzoq cho'zilmadi. Mahmud G'aznaviyning shimoliy Hindistonda urush olib borayotganligidan foydalangan Nasr Ilekxon 1006-yilda katta qo'shin bilan Amudaryodan kechib o'tib Balx, Tus, Nishopur shaharlarini bosib oladi. Nasr Ilekxonning o'limidan so'ng oradan biroz vaqt o'tgach Movarounnahrdagi hokimiyat Qoraxoniylarning Hasaniylar sulolasiga mansub Alitegin qo'liga o'tdi.

XII asrning boshlariga kelib Qoraxoniylar taxtiga Arslonxon (1102-1130 yy.) o'tirib yarim mustaqil davlatni boshqargan bo'lsada, to'la mustaqillik uchun harakatlar olib bordi. Ulamolar bilan kelishmovchilik va betobligi tufayli Arslonxon taxtni 1130-yilda o'g'li Nasrga topshiradi. Nasr davrida zidiyatlar va hokimiyat uchun kurashlar natijasida davlat zayiflashadi va Saljuqiylar Sultoni Sanjar Samarqand shahrini egallaydi va shu davrdan boshlab Qoraxoniylar o'z mustaqilligini deyarli yo'qotib Saljuqiylarga qaram bo'lib qoldilar. XIII asr da Xorazimshohlar tamonidan bu sulola batamom tugatiladi

Xulosa qilib aytganimda Qoraxoniylar davlatining barpo etilishi harbiy, siyosiy va iqtisodiy omillarning uyg'unligi bilan tavsiflangan. Davlatning muvaffaqiyati islom dinining qabul qilinishi, markazlashgan siyosiy tizimning o'rnatilishi va qulay iqtisodiy vaziyat tufayli bo'ldi. Bu omillar qoraxoniylarga O'rta Osiyo tarixida hal qiluvchi rol o'ynagan qudratli davlat qurish imkonini berdi. Bu davrga kelib katta yer egasi bo'lgan dehqonlarning ham mavqeyi tushadi yerlar davlat mulki bo'lib ketadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

- 1) Qoraxoniylar davlatchiligi tizimining xususiyatlari Toshkent 2010
- 2) O'zbekiston tarixi I kitob Toshkent 2021
- 3) O'zbekiston tarixi Davlat va jamiyat taraqqiyoti